

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

XODJIYEV AZIZJON RASHID O‘G‘LI

**BAYDARKA VA KANOEDA SPORTCHILARNING YUQORI SPORT
MAHORATI BOSQICHIDA MASHG‘ULOT YUKLAMALARINING HAJMI
VA INTENSIVLIGINI OPTIMALLASHTIRISH**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xodjiyev Azizjon Rashid o'g'li

Baydarka va kanoeda sportchilarning yuqori sport mahorati bosqichida mashg'ulot yuklamalarining hajmi va intensivligini optimallashtirish..... 3

Ходжиев Азизжон Рашид угли

Оптимизация объема и интенсивности тренировочных нагрузок на этапе высшего спортивного мастерства спортсменов в гребле на байдарках и каноэ..... 25

Khodjiyev Azizjon Rashid ugli

Optimizing the volume and intensity of training loads for kayak and canoe athletes at the stage of high sports mastery..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

XODJIYEV AZIZJON RASHID O‘G‘LI

**BAYDARKA VA KANOEDA SPORTCHILARNING YUQORI SPORT
MAHORATI BOSQICHIDA MASHG‘ULOT YUKLAMALARINING HAJMI
VA INTENSIVLIGINI OPTIMALLASHTIRISH**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7685 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jtsu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Korobeynikov Georgiy Valerovich

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yarashev Komiljon Dexkanovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sherov Zokir Tuyliyevich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dosent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqolpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” “___” soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111790, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-27-27, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, “A” bino, 1-qavat, 118-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.

(2026-yil “___” “___” da ___ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi p.f.d.(DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi
p.f.d. (DSc), professor

M.S.Olimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda zamonaviy sport rivojlanish tendensiyalari yuqori natijalarga erishish uchun sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini yanada mukammal rejalashtirish va optimallashtirish zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, baydarka va kanoe kabi texnik-texnologik murakkab sport turlarida yuqori sport mahorati bosqichida mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va intensivligini optimal darajada belgilash sportchining maksimal funksional imkoniyatlarini ishga solish, musobaqa natijalarini oshirish va jarohatlarning oldini olish uchun asosiy omil hisoblanmoqda. Mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish, ilmiy asoslangan yuklama boshqaruvi va rekuperatsiya mexanizmlarini takomillashtirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Baydarka va kanoe sporti o‘zining dinamik xususiyati, koordinatsion murakkabligi va yuqori darajada chidamlilikni talab qilishi bilan birga, mashg‘ulot yuklamalarining optimal nisbati, intensivlik va hajm o‘rtasidagi muvozanat sport natijalarini barqaror oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Buni inobatga olib baydarka va kanoechilarni mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish muammolari dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Jahonda mashg‘ulot jarayonida yuklamalarning optimal kombinatsiyasi va individual moslashuv mexanizmlariga e‘tibor qaratish natijadorlikni sezilarli oshirish imkonini bermoqda. Baydarka va kanoe sport turi rivojlanib borayotgan bir sharoitda, xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun yuqori mahorat bosqichidagi sportchilarning mashg‘ulot yuklamalarini ilmiy asosda optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yuklama hajmi va intensivligi muvozanatini ta‘minlash sportchilarning funksional imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon qilish va musobaqa natijalarini oshirish uchun asosiy ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Mashg‘ulot yuklamalari tuzilishi, sportchilarning fiziologik ko‘rsatkichlari va moslashuv jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar keng ko‘lamda amalga oshirilgan. Baydarka va kanoechilarning maksimal kislorod iste‘moli (MKI), laktat darajasi va kuch-quvvat ko‘rsatkichlarini mashg‘ulot yuklamasi o‘zgarishlari bilan bog‘liqligi bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Yuklamalarni rejalashtirish va davriylashtirish, mashg‘ulot yuklamasining ortiqcha bo‘lishi sportchilarda uzoq muddatli charchoqqa, sport formasi pasayishiga va jarohatlarga olib kelishini ilmiy asoslab berishgan. Biroq malakali baydarka va kanoechilarni mashg‘ulot yuklamalar hajmi va shiddatini oshirishga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sport sohasiga davlat darajasida e‘tibor kuchayib, sportning turli yo‘nalishlari, jumladan, baydarka va kanoe sporti ham barqaror rivojlanib kelmoqda. Natijalarni barqaror saqlab qolish va yanada oshirish uchun yuqori mahorat bosqichida mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va intensivligini ilmiy asosda optimallashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda ¹. “baydarka va kanoechilar uchun yuklama boshqaruvini individuallashtirish orqali natijadorlikni

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

oshirish” kabi vazifalar belgilab berilgan. Yuklamaning hajmi va intensivligini ilmiy monitoring asosida nazorat qilish, individual yondashuvni kuchaytirish, tiklanish jarayonini to‘g‘ri boshqarish imkoniyatlari yetarlicha joriy etilmagan. Bu esa sportchilarda ortiqcha yuklama, funksional buzilishlar va musobaqa natijalarining barqaror bo‘lmasligiga olib kelish ehtimolini oshirmoqda. Bu esa, yuqori malakali baydarka va kanoechilar mashg‘ulot yuklamalar hajm va shiddatini optimallashtirishga qaratilgan tizimni ishlab chiqish, ilmiy asoslash bugungi kunda ta’lim hamda jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining dolzarb va muhim muammolari ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021 yil 5-noyabrda PQ-5279-son “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 4-noyabrda PQ-382-son “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqot materiallari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga bog‘liq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Suv sport turlariga tayyorlash mexanizmlari, yosh eshkak eshuvchilarni texnik xatolarini bartaraf etish metodologiyasi hamda suv sport turlari bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorgarlik turlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy metodikalarini ishlab chiqish, masalalari bo‘yicha G.M.Krasnova, A.G.Sadikov, V.M.Korbut, R.G.Israilova, X.Yu.Matnazarov, B.F.Ikramov, Z.N.Azimov, I.M.Mambetnazarov, Sh.I. Xolmurzayev² kabi soha olim va mutaxasislari ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdostligi soha mutahasis olimlari A.M.Grebennikov, A.A.Pomeransev, G.N.Semayeva, S.V.Verlin, I.N.Maslovalar³ o‘z tadqiqotlarida

²Краснова Г.М. Формирование профессиональных знаний и умений по плаванию у студентов института физической культуры: Автореф. дис. канд. пед. наук. 2009. – 56 с.; Садиков А.Г. Интенсификация процесса подготовки юных пловцов учебно-тренировочных групп 13-15 лет. Автореф. дис. канд. пед. наук. Т.: 2009. – 52 с.; Корбут В.М., Исраилова Р.Г., Матназаров Х.Ю., Икрамов.Б.Ф. Эшкак эшиш назарияси ва услубияти. Ўқув қўлланма. Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – 172 б.; Azimov Z.N. Baydarkada eshkak eshuvchilarni tayyorlashda "kayak pro" orqali o‘quv yuklamalarini nazorat qilish. "Fan-Sportga" ilmiy-nazariy jurnal Chirchiq 2021/4. B.43-45.; Мамбетназаров И.М., Холмурзаев Ш.И. Жамоавий қайиқларни шакллантиришда эшкакка бериладиган қучланишларнинг ахамияти // “Universitet sporti: millatning sog‘ligi va farovonligi” XI talabalar va yosh olimlarning Xalqaro ilmiy anjumani. Chirchiq. 2022. – B.142-144.

³ Гребенников, А.М. Методика силовой подготовки гребцов на байдарках этапа углубленной спортивной специализации: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.04 / Гребенников Алексей Михайлович. – Волгоград, 2000. – 23 с.; Померанцев, А.А. Влияние аэро- и гидродинамических факторов на спринтерские результаты в гребле на байдарке: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Померанцев Андрей Александрович. – М., 2006. – 23 с.; Семаева Г.Н. Факторный анализ структуры спортивного мастерства гребцов на байдарках высшей квалификации / Г.Н. Семаева, С.В. Верлин, // Вестник спортивной науки. – 2011. № 3. – С. 14–17.; Померанцев, А.А. Методика

sportchilarning tayyorgarlik jarayonida yuklamalarni davriylashtirish (periodizatsiya) va intensivlikni boshqarish nazariyasini asoslab berishgan. Ularning tadqiqotlarida mashg'ulot yuklamasining miqdor va sifat ko'rsatkichlari, organizmning moslashuv reaksiyalari va tiklanish jarayonlari o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilingan.

Xorijiy mamlakatlarda D.Bishop, D.Bonetti, B.Dawson, M.Trew, T.Everett, B.Donne, N.Mahony, U.G.Kersting, N.Kurpiers, B.J.S.Darlow, V.W.Nolte, M.Begon, F.Colloud, P.Sardain⁴ baydarka va kanoe sportchilari organizmida uzoq muddatli yuklama va intensiv mashg'ulotlarning fiziologik ta'sirini, maksimal kislorod iste'moli (VO_{2max}), anaerob quvvat va texnika ko'rsatkichlarining o'zgarishini ilmiy tahlil qilishgan. Suv sport turlarida mashg'ulot yuklamalarining intensivligi va tiklanish strategiyalarini aniqlashda zamonaviy texnologiyalar va fiziologik monitoring vositalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqishgan.

Shunga qaramay, o'rganilgan maxsus adabiyotlarda aynan oliy sport mahorati bosqichidagi mashg'ulot yuklamalarining hajmi va intensivligini kompleks tarzda ilmiy o'rganishga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar yetarlicha emas. Baydarka va kanoe sportchilarining yuqori bosqichdagi tayyorgarligi, yuklama va tiklanish jarayonlarini o'zaro uyg'unlashtirishga oid chuqur ilmiy tadqiqotlarning yetishmasligi, sportchilarning yuqori mahorat bosqichidagi yuklama va intensivlik rejimlarini mahalliy ekologik, iqlimiy va fiziologik sharoitlarga moslashtirib optimallashtirish bo'yicha chuqur va kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Bu esa o'rganilayotgan masala yechimini ochib berishda ushbu tadqiqotning tanlangan yo'nalishi dolzarb ekanligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy tadqiqot rejasining V.1/4. "Suzish, sinxron suzish, suv polosi hamda eshkak eshish sport trulari bilan shug'ullanuvchi sportchilarning tayyorgarlik turlari (nazariy, jismoniy, texnik, taktik, psixologik, o'yin) bo'yicha tayyorgarliklarini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

пространственной реконструкции подводной траектории движения весла как основа теоретических и прикладных исследований в гребном спорте: Монография / А.А. Померанцев. – Липецк: ФГБОУ ВПО «ЛГПУ», 2012. – 184 с.; Верлин, С.В. Построение годичного цикла тренировки высококвалифицированных гребцов на байдарках, специализирующихся в спринте: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Верлин Сергей Викторович. – М.: ФГБУ ФНЦ ВНИИФК, 2015. – 118 с.; Маслова, И.Н. Развитие специальной выносливости гребцов на байдарках и каноэ высокой квалификации / И.Н. Маслова // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. – № 5 (135). – СПб.: Изд-во политех. ун-та, 2016. – С. 143-148.

⁴ Bishop, D. The influence of pacing strategy on VO_2 and supramaximal kayak performance / D. Bishop, D. Bonetti, B. Dawson // Med Sci Sports Exerc., 2002. – № 34. – Pp. 1041-1047.; Trew, M. Human Movement: An Introductory Text, 5th edition / M. Trew, T. Everett. – London, UK, Churchill Livingstone, 2005. – Pp. 7-14.; Fleming, N. Electromyographic and kinesiological analysis of the kayak stroke: comparison of on-water and on-ergometer data across exercise intensity / N. Fleming, B. Donne, N. Mahony // Proceeding of the 12th annual congress of the european college of sports sciences. – Jyväskylä, Finland, 2007. – Pp. 81-90.; Kersting, U.G. Three-dimensional assessment of on water rowing technique: a methodological study / U.G. Kersting, N. Kurpiers, B.J.S. Darlow, V.W. Nolte. // 26 international conference on biomechanics in sports. – Seoul, Korea, 2008. – Pp. 72.; Begon, M. Lower limb contribution in kayak performance: modeling, simulation and analysis / M. Begon, F. Colloud, P. Sardain // Multibody System Dynamics. – 2010. – Pp. 387-400.

Tadqiqotning maqsadi. Yuqori malakali eshkak eshuvchilarning mashg'ulot yuklamalari hajmi va intensivligini hisobga olgan holda yillik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy sport mahorati guruhida shug'ullanuvchi eshkak eshuvchilarning yuklamalarni bajarishda turli xil energiya ta'minoti manbalarining ulushini aniqlash;

oliy sport mahorati guruhida shug'ullanuvchi eshkak eshuvchilar uchun mashg'ulot yuklamalarining intensivlik zonalari bo'yicha tasnifini ishlab chiqish;

oliy sport mahorati guruhida shug'ullanuvchi eshkak eshuvchilarning yillik mashg'ulot yuklamalarini xajmi va intensivligi asosida tashkil etilgan mashg'ulot tuzilmasini ishlab chiqish;

yuqori malakali eshkak eshuvchilarning mashg'ulot yuklamalari xajmi va intensivligini hisobga olgan holda yillik tayyorgarlik siklini optimallashtirish samaradorligini tajribada asoslash.

Tadqiqotning obyekti Suv sport turlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi eshkak eshish bazasi (Toshkent dengizi)da shug'ullanuvchi malakali eshkak eshuvchilarning mashg'ulotlari jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini malakali eshkak eshuvchilarning mashg'ulot yuklamalar hajmi va shiddatini optimallashtirishga qaratilgan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, anketa so'rovnomasi, matematik-statika kabi tadqiqot uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

baydarka va kanoyeda eshkak eshuvchilarning 200 m va 1000 m musobaqa masofalarida faoliyatni ta'minlovchi anaerob-alaktat, anaerob-laktat va aerob energiya ta'minoti mexanizmlarining ulushini aniqlash asosida mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning musobaqaviy ixtisosligi, funksional imkoniyati va masofa xususiyatiga muvofiq oqilona taqsimlash imkoniyati kengaytirilgan;

yuqori malakali eshkak eshuvchilarning bazaviy, maxsus masofaviy hamda musobaqa chidamliligi, tezlik va start quvvatini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot yuklamalarini yurak urish chastotasi, laktat ko'rsatkichlari va ish shiddatiga bog'liq holda intensivlik zonalari bo'yicha tasniflash orqali mashg'ulot jarayonini bosqichma-bosqich tizimlashtirish imkoniyati kengaytirilgan;

yillik tayyorgarlik siklida mashg'ulot yuklamalari hajmi va shiddati nisbati, tayyorgarlik bosqichlari ketma-ketligi, makro- va mezosikllarda yuklamalarning vaqt bo'yicha o'zgarish dinamikasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan mashg'ulot tuzilmasi asosida yuqori malakali eshkak eshuvchilarning yuklamalarini optimal rejalashtirish uslubiyati takomillashtirilgan;

eshkak eshuvchilarning jismoniy tayyorgarligi, anaerob almashinuv chegarasi (ANACH), maksimal yurak urish chastotasi (MYuCh), tiklanish jarayonlari dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi maxsus mashqlar, intensivlik zonalariga asoslangan yuklama vositalari hamda individuallashtirilgan nazorat usullarini qo'llash

orqali yillik tayyorgarlik davrida mashg'ulot yuklamalarini optimal boshqarish imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

baydarka va kanoe sportchilari uchun mashg'ulot yuklamalarining hajmi va intensivligini optimallashtirishga oid ilmiy asoslangan metodika ishlab chiqilgan;

sportchilarning yuqori sport mahoratini shakllantirishda yuklamaning davriylashtirilgan musobaqa va tiklanish davrlarining o'zaro uyg'unligi va optimal yuklama-reaksiyasini oshirishga qaratilgan model takomillashtirilgan;

malakali baydarka va kanoechilar optimal yuklama berilishi va charchoq sindromi xavfini kamaytirishga qaratilgan mashg'ulot jarayonlarida chidamkorlik yuklamalarini individual boshqarish algoritmlari ishlab chiqilgan hamda mashg'ulotlarda qo'llab borilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlardan olingan natijalarning ishonchliligi nazariy, uslubiy, ilmiy tadqiqotning mantiqiy ketma-ketligi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi vatanimiz hamda chet el olimlari, shuningdek, amaliyotchi murabbiylarning fikrlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi va o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanganligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil qilish usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati baydarka va kanoe sportchilarining yuqori sport mahorati bosqichida mashg'ulot yuklamalari hajmi va intensivligini optimallashtirish, mashg'ulot yuklamasining organizmga ta'siri va sport natijalariga bog'liqligini ko'rsatuvchi fiziologik va biokimyoviy ko'rsatkichlar asosida differensiallashtirish, yuqori sport mahorati bosqichida mashg'ulot yuklamalarini davriylashtirishning modellini ishlab chiqish, malakali baydarka va kanoechilar mashg'ulot yuklama rejimlarini optimallashtirishni ilmiy mohiyati ochib berilganligi hamda ilmiy-uslubiy jihatdan boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sportchi tayyorgarlik darajasi, individual fiziologik xususiyatlari va musobaqa sikliga mos yuklama hajmini tanlash, model orqali yil davomida sport formasi cho'qqisiga to'g'ri va rejali tarzda chiqish, tiklanish davrlarini ilmiy rejalashtirish, charchash sindromini oldini olish va mashg'ulot samaradorligini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha amaliy jihatdan samaradorligi oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori malakali eshkak eshuvchilarning mashg'ulot yuklamalari hajmi va intensivligini hisobga olgan holda yillik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish qaratilgan vositalarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

baydarka va kanoyeda eshkak eshuvchilarning 200 m va 1000 m musobaqa masofalarida faoliyatni ta'minlovchi anaerob-alaktat, anaerob-laktat va aerob energiya ta'minoti mexanizmlarining ulushini aniqlash asosida mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning musobaqaviy ixtisosligi, funksional imkoniyati va masofa xususiyatiga muvofiq oqilona taqsimlash bo'yicha taklif va tavsiyalar Respublika suv sporti

turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning mashg'ulotlar jarayoniga tadbqiq qilingan. (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 24-sentabrdagi 02-16/10265-son ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori malakali eshkak eshuvchilarni mashg'ulot yuklamalarining hajmi va intensivligi 12,6% ga oshgan;

yuqori malakali eshkak eshuvchilarning bazaviy, maxsus masofaviy hamda musobaqa chidamliligi, tezlik va start quvvatini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot yuklamalarini yurak urish chastotasi, laktat ko'rsatkichlari va ish shiddatiga bog'liq holda intensivlik zonalari bo'yicha tasniflash kabi taklif va tavsiyalar Toshkent viloyati suv sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi eshkak eshuvchilarining mashg'ulotlariga tadbqiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 24-sentabrdagi 02-16/10265-son ma'lumotnomasi). Natijada, texnik mashqlari (qayiq burish)da tajriba guruhi eshkak eshuvchilarda o'rtacha nisbiy o'sish 6,68% ga yaxshilangan;

yillik tayyorgarlik siklida mashg'ulot yuklamalari hajmi va shiddati nisbati, tayyorgarlik bosqichlari ketma-ketligi, makro- va mezosikllarda yuklamalarning vaqt bo'yicha o'zgarish dinamikasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan mashg'ulot tuzilmasi bo'yicha taklif va tavsiyalar Suv sport turlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning mashg'ulotlar jarayoniga tadbqiq qilingan. (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 24-sentabrdagi 02-16/10265-son ma'lumotnomasi). Natijada, muvozanat saqlash testi bo'yicha ushlab turish mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari o'rtacha 18,35% ga oshgan;

eshkak eshuvchilarning jismoniy tayyorgarligi, anaerob almashinuv chegarasi (ANACH), maksimal yurak urish chastotasi (MYuCh), tiklanish jarayonlari dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi maxsus mashqlar, intensivlik zonalariga asoslangan yuklama vositalari hamda individuallashtirilgan nazorat usullarini qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar eshkak eshish sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari Respublika sport maktabining baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning mashg'ulot jarayonlariga tadbqiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 24-sentabrdagi 02-16/10265-son ma'lumotnomasi). Natijasida, gantel bilan ko'krakdan bosish mashqi o'rtacha nisbiy o'sish ko'rsatkichi 10,84% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 133 betni tashkil etib, kirish, to'rtta bob, 37 ta jadval, 19 ta rasm, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, disertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yuqori malakali eshkak eshuvchilarning sport mashg'uloti tizimini shakllantirish muammolarini o'rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida baydarka va konochilarni mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish xususiyatlari, sportchilarni integral tayyorlash mexanizmlari, mashg'ulot yuklamalarini hajm va shiddatini oshirish xususiyatlari bo'yicha batafsil adabiyotlar tahlil etilgan.

Hozirgi kunda baydarka va kanoeda eshkak eshish kabi yuqori intensivlikdagi siklik sport turlari zamonaviy sport sohasida nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki texnik mahorat, funksional imkoniyatlar va psixologik barqarorlikni talab qiluvchi sport turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada rivojlanib, nafaqat sport anjomlari va jihozlarining dizaynida, balki mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilishda ham yangi texnologik yondashuvlar joriy etildi.

Mahalliy olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida keltirishicha, baydarkachilarda texnik tayyorgarlikni takomillashtirish uchun maxsus mashq dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyatga kasb etadi. Tadqiqotga ko'ra, eshkak eshish texnikasini optimallashtirish maqsadida sportchilarning harakatlarini kinematik va dinamik tahlil qilish orqali individual mashg'ulot dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, suvda va quruqlikda bajariladigan mashqlar, simulyatorlarda ishlash hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan, harakat sensorlari va video tahlil dasturlaridan foydalanishni targ'ib qilgan. U texnik mahoratni oshirishda muvozanat, koordinatsion va mushaklarning sinxron ishlashiga alohida e'tibor qaratadi. Maslovaning yondashuvi sportchilarning jismoniy imkoniyatlariga moslashtirilgan mashqlar orqali nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki musobaqa natijalarini yaxshilashga ham yordam beradi. Ularning tadqiqotlari baydarkada texnik tayyorgarlikni ilmiy asosda takomillashtirish uchun muhim yo'riqnomalar mavjudligi haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan V.Korbut, X.Matnazarov, G.Israilova, I.Mambetnazarov, Sh.Xolmurzayev, Z.Azimov.

I.N.Maslova, Yu.I.Afanasyev, F.Zintl va S.V.Verlinlar tomonidan qo'llanilgan yondashuvda yuqori malakali sportchilarning musobaqa faoliyatidagi natijalarining o'sish samaradorligi tahlil qilinadi. Muallifning ishida musobaqa davridagi sportchilarning jismoniy, psixologik va taktikal tayyorgarlik darajasining natijalarga ta'siri keng yoritilgan. Tadqiqotda natijalarni baholashda statistik tahlil usullari qo'llanilgan bo'lib, bu usullar sportchilarning musobaqa faoliyatining dinamikasini aniq ko'rsatishga imkon bergan. I.Mambetnazarovning yondashuvi musobaqa davrida

sportchilarning eng yuqori natijalarni ko'rsatishiga ta'sir qiluvchi omillarni, jumladan, mashg'ulotlarning intensivligi, tiklanish jarayonlari va psixologik barqarorlikni aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda yuqori malakali sportchilarning musobaqa strategiyasini optimallashtirish bo'yicha takliflar keltirilgan. Ushbu tahlil sport sohasida murabbiylar va mutaxassislar uchun muhim amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili modellashtirish va mashg'ulot jarayonini boshqarishning yuqori malakali kanoe va baydarkachilar uchun mashg'ulot tizimlarini shakllantirishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Azimov jismoniy tayyorgarlikni, Mambetnazarov texnik tayyorgarlik va jamoaviy ekipajlarni shakllantirishni, Zintl chidamlilik mashg'ulotlarini, Xolmurzayev esa ixtisoslashgan yuklamani nazorat qilishni ta'kidlaydi. Ushbu manbalar tashkiliy va metodologik muammolarni hal qilish uchun nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi. Har bir muallifning xulosalari sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda modellashtirishga asoslangan tizimli yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, unda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik-nazorat testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot bazasi Toshkent viloyati Tuyabo'g'iz posyolkasidagi O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tasarrufidagi eshkak eshish bazasida shug'ullanuvchi yuqori malakali baydarka va kanoechilar tanlandi. Tadqiqot quyidagi bosqichlardan iborat: Tadqiqotlar 2022-2025 yillar davomida 3 ta bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich (2022-2023-yillar) davomida olib borildi. Mazkur bosqichda dissertatsiya ishining asosiy tushunchalari belgilab olindi. Izlanish mavzusi bo'yicha pedagogik ma'lumotlarni o'rganish, umumlashtirish va tizimlash amalga oshirildi. Mahalliy va xorijiy manbaalarda muammoning o'rganilganlik va ishlanganlik darajasi aniqlandi. Tanlangan kontingentning dastlabki sinov ko'rsatkichlari olinib, batafsil tahlil qilindi.

Bu bosqichda baydarka va kanoechilarning nazariy tahlil, qiyoslash, tajribani umumlashtirish, kuzatuv, so'rovnoma (test, anketa so'rovi, suhbat), kabi musobaqa tadqiqot uslublariidan foydalanildi.

Ikkinchi bosqich (2023-2024 yillar) – Respublikadagi 50 ta baydarka va kanoe eshish bo'yicha murabbiylardan anketa so'rovi o'tkazildi hamda Toshkent viloyati Tuyabo'g'iz posyolkasidagi O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tasarrufidagi eshkak eshish bazasida shug'ullanuvchi yuqori malakali baydarka va kanoechilarni texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, sinaluvchilarning jismoniy tayyorgarligi va funksional holati tahlil qilindi.

Uchinchi bosqich (2024-2025 yillar) – asosiy tajriba. Mashg'ulot dasturiga tavsiya qilingan uslubiyat amaliyotga tadbiiq qilinib, sinaluvchilarning jismoniy, texnik, musobaqa faoliyatidagi natijalariga tavsiya qilingan vositalarning samaradorligi aniqlandi. Tajriba oxirida dastlabki va yakuniy natijalar qiyosiy tahlil qilinib yakuniy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning “**Malakali eshkak eshuvchilarning mashg‘ulot yuklamalari tasnifi**” deb nomlangan uchinchi bobida eshkak eshuvchilarning musobaqa faoliyatidagi energota‘minot xususiyatlari, mashg‘ulot yuklamalarining shiddat zonalarini bo‘yicha tasniflanishi, eshkak eshuvchilarning yillik tayyorgarlik davrini rejalashtirish yoritib berilgan.

Erkaklar o‘rtasida 200 va 1000 metr masofalarga malakali baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning musobaqa faoliyati bo‘yicha qiyosiy ma‘lumotlar keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Olimpiya dasturining turli masofalarida malakali eshkak eshuvchilarning musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar (n-9)	Erkaklar K-1			
	200m	1000m	Farqlarning ishonchliligi, (P)	200 m - 1000 m ko‘rsatkichlarini ng nisbati, %
	$\bar{x} \pm \sigma$	$\bar{x} \pm \sigma$		
Natija, s.	37,88±0,76	229,18±4,24	<0,05	
V _{o‘r} , m/s	5,29±0,10	4,36±0,08	<0,05	82,4
T, esh/daq	133,14±6,52	104,00±4,18	<0,05	78,1

Bunda K-1 sport qayiqlari sinflarida eshkak eshish tezligi va sur‘ati ko‘rsatkichlari 200 m dan 1000 m masofaga pasayish darajasi mos ravishda 17,6 va 21,9% ni tashkil etadi. Eshkak eshish tezligi va sur‘atidagi bunday yaqqol farqlar erkaklarda 200 va 1000 metr masofalardagi musobaqa faoliyatining eshkak eshuvchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi darajasiga, shuningdek, ushbu faoliyatning energiya ta‘minoti xususiyatiga qo‘yadigan talablari sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi.

Laboratoriya sharoitida turli masofalarni modellashtirish turli xil energiya ta‘minoti manbalarining hissasini aniqlash imkonini beradi. Erkaklar o‘rtasida 200 metr va 1000 metr musobaqa masofalarini bosib o‘tish jarayoni modellashtirilib o‘rganildi. Buning uchun eshkak eshish ergometrida bajarilgan standart testlar qo‘llanildi. Xususan, 40 soniyalik test hamda 1000 metr (baydarka va kanoe) musobaqa masofasini modellashtirish uchun 3 daqiqalik test o‘tkazildi. Energiya sarfi va turli energiya ta‘minoti manbalarining hissasini hisoblash umumqabul qilingan tavsiyalarga muvofiq amalga oshirildi. Tajriba tadqiqotlari natijalari keltirilgan (2-jadvalga qarang).

Erkaklar orasida 200 va 1000 metr masofalarda (baydarka va kanoeda) turli xil energiya ta‘minoti manbalarining ulushi sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi. Xususan, 200 metr masofada baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning musobaqa faoliyatini ta‘minlaydigan asosiy energetik mexanizm anaerob glikoliz hisoblanadi. Uning ulushi baydarkachilarning umumiy energiya almashinuvi balansida 64,2 foizni tashkil etadi.

**Yuklamalarni bajarishda turli xil energiya ta'minoti
manbalarining ulushi, %**

Testlar	Energiya ta'minoti manbasi, %		
	Anaerob alaktat	Anaerob laktatli	Aerob
	$\bar{x} \pm \sigma$	$\bar{x} \pm \sigma$	$\bar{x} \pm \sigma$
40 s.	17,3 $\pm$ 3,40	64,2 $\pm$ 8,25	18,6 $\pm$ 4,94
3 daq.	3,7 $\pm$ 0,17	25,7 $\pm$ 3,32	70,6 $\pm$ 5,39

Bunda baydarkada eshkak eshuvchilarda anaerob-alaktat mexanizmning ulushi 17,3 foizni tashkil etadi. Shunday qilib, erkaklarda baydarkada eshkak eshishning sprinterlik turlarida energiya ta'minotining kreatin-fosfat va glikolitik mexanizmlari asosiy hisoblanadi. Ularning ulushi musobaqa faoliyatining metabolik ta'minotining umumiy hajmida 80 foizdan oshig'ini tashkil yetadi.

1000 metr masofada esa energiya ta'minotining aerob (oksidlanish) mexanizmi asosiy bo'lib, uning ulushi musobaqa faoliyatining metabolik ta'minotining umumiy hajmida 63-71 foizni tashkil etadi.

Mashg'ulot yuklamasiga bo'lgan turli xil qarashlarni umumlashtirib, bu masalani hal qilishning har qanday yondashuvida baholash mezonlari hajm va shiddat parametrlari ekanligini ta'kidlash mumkin. Bunda hajm deganda ko'rib chiqilayotgan vaqt oralig'idagi umumiy mashg'ulot faoliyati, shiddat deganda esa harakat aktining sportchi organizmiga ma'lum bir vaqtdagi ta'sir kuchi tushuniladi.

Ish quvvatining fiziologik zonalari va ularga mos keladigan energiya ta'minoti manbalari haqidagi tasavvurlar sport turlarining o'ziga xos xususiyatlariga qarab sezilarli farqlanadigan shiddat zonalari bo'yicha mashg'ulot yuklamalarining turli tasniflarini ishlab chiqishga olib keldi.

Baydarka va kanoeda eshkak eshishda mashg'ulot yuklamalari yurak urish tezligi ko'rsatkichlariga va ishning energiya ta'minoti xususiyatlariga nisbatan shiddat zonalari bo'yicha tasniflandi.

Mashg'ulotlarning shiddatlilik darajasini yurak urish tezligiga qarab baholash mumkin. Yuqori shiddatga erishish uchun maqsadli yurak urish zonasiga yetish kerak - bu maksimal yurak urish chastotasining (MYuCh) foizlari bilan o'lchanadi.

200, 500 va 1000 metr masofalardagi musobaqa faoliyati elementlari sezilarli farqlarga ega. Shu sababli, 200 metr masofaga ixtisoslashgan eshkak eshuvchilarning maxsus jismoniy sifatlariga ta'sir qilish yo'nalishi bo'yicha mashg'ulot yuklamalarining shiddat zonalari tasnifini ishlab chiqish, shuningdek, turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarish samaradorligini belgilovchi mezonlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

200 metr masofada baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha malakali sportchilarning musobaqa faoliyatini o'rganishda olingan tajriba natijalarini umumlashtirish asosida, shuningdek, turli sport turlarining sprint yo'nalishlarida mashg'ulot yuklamalarining yo'nalishi haqidagi maxsus adabiyotlardagi ma'lumotlarga tayanib, sprintga ixtisoslashgan eshkak eshuvchilar uchun yuklamalar tasnifi ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Baydarkada eshkak eshishning sprint turida yuklamalarni shiddat zonalari bo'yicha tasniflash

Shiddat zonalari	Yuklamaning yo'nalishi	Yuklamaning shiddati, MYuCh dan %	Samaradorlik mezonlari
I	Aerob rejimidagi aerob-tiklanish, maxsus kuch va texnik tayyorgarlik bo'yicha ishlar	70 gacha	La < 3,0 mMol/l
II	Bazaviy chidamlilikni rivojlantirish (800 metrdan uzoq masofalar)	71 - 80	La 3 - 5 mMol/l
III	Maxsus masofaviy chidamlilikni rivojlantirish (300-800 metrli kesimlar)	81 - 90	La 6 - 8 mMol/l GIK* - 0,10 - 0,29
IV	Maxsus musobaqa chidamliligini rivojlantirish (100-300 metr masofalar)	91 - 100	La 9 - 12 mMol/l GIK* - 0,30 - 0,45
V	Tezlik va start quvvatni rivojlantirish (20 - 80 metrli masofalar)	Max	La < 6,0 mMol/l
* GIK - glikoliz intensivligi koeffitsiyenti (mMol/s)			

Asosiy mashg'ulot vositalari III, IV va V shiddat zonalarda bajariladigan maxsus mashqlardan iborat. Musobaqa oldi va musobaqa shiddatidagi (91-100%) mashqlar sportchining asosiy musobaqa mashqining deyarli barcha dinamik, kinematik, fazoviy va vaqt parametrlarini modellashtirib, sport mashg'ulotining eng muhim rivojlantiruvchi vositasi hisoblanadi. Mashg'ulot mashqlarining bu guruhiga musobaqa shiddatidan yuqori bo'lgan barcha mashqlarni ham kiritish mumkin.

Trenirovka makrosikllarida mashg'ulot yuklamalarini uyg'un-izchil tashkil etish tizimida turli yo'nalishdagi mashg'ulot yuklamalarini qo'llashning samarali ketma-ketligi va davomiyligi haqidagi nazariy va tajribaviy ma'lumotlarni tahlil qilish asosida, shuningdek, sprint masofasida yuqori natijalarga erishgan eshkak eshuvchilar bilan ishlaydigan O'zbekistonning xizmat ko'rsatgan murabbiylari A.V. Ponomarev, V.S. Shubin, Yu.V. Ibragimovlarning amaliy tajribasini umimlashtirish natijasida sprinter-eshkak eshuvchilarning yillik mashg'ulot siklida mashg'ulot yuklamalarini tuzishning asosiy modeli ishlab chiqildi. (4- va 5-jadvallarga qarang).

Rejalashtirish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat edi: musobaqalar taqvim, mashg'ulot yuklamalari hajmi va shiddatining nisbati, mashg'ulot jarayonining turli bo'g'inlari ketma-ketligi va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishi.

4-jadval

Yuqori malakali baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning tayorgarlik davri uchun mashg'ulotlar dasturi

Hafta kuni	Yuklamalarning asosiy yoʻnalishlari	Kun vaqti	Tarkib trening	Shiddat zonalari						
				I	II	III	IV	V	Km	Daq
Dushanba	Maxsus raqobatbardoshlik	Ertalab:	Yugurish 20'-30' , URM, texnik tayyorgarlikni takomillashtiruvchi mashgʻulot							60'
		kun	Intervali eshkak eshish (250 m IV zonasi X 4 bir marta orqali 300 m I zona) X 4-5 seriya;	6	2		4		12	120'
		Kechqurun	Trenajorlarda jismoniy mashqlar va maxsus nazorat, kuch sifatini takomillashtirish 30" Qayta tiklash, texnikaga eʼtibor qaratib eshkak eshish 40'-50'	7	3	1	1		12	90'
		Kun:	Eshkak eshish: uzluksiz oʻzgaruvchan usul, tezlashtirilgan maksimal tezliklarda masofa davomida ritmni saqlash	5	6	4		1	16	90'
Seshanba	Texnika va muvofiqlashtirish	Kechqurun:	Eshkak eshish: standart. maxsus kuch turlari + AEP qoʻllab-quvvatlash va nazorat qilish, kuch sifatlarini rivojlantirish	8	5	2			15	100' 60'
Chorshanba	Eshkak eshish va kuch	Ertalab:	Yugurish, URM, sakrash, uradi, surish							60'
		Kun:	Eshkak eshish: almashinadigan - takrorlanuvchi eshkak eshish bilan tormozlar yoki ogʻirliklar seriyali (15"/15"+20"/20"+30") x indiv./5'	8	7	2			17	100'
		Kechqurun:	Trenajorlarda jismoniy mashqlar va maxsus nazorat kuch mezonlari, kuch sifatini rivojlantirish uchun 30" Qayta tiklash texnik eshkak eshish 40'-50'	5	4				9	60' 60'
		Ertalab:	Erkin, alohida							
Payshanba	Maxsus bazaviy chidamlilikni saqlash	Kun:	Eshkak eshish: - takrorlash oldin rejim ushlab turish 80 % tezliklar (200m=300m; 500m=700m; 1000m=1200)x n indiv./8'	6	3	6			13	140'
		Kechqurun:	Qayta tiklovchi va faol dam olishga qaratilgan vositalar							
		Ertalab:	Erkin, alohida							60'
Juma	Maxsus masofaga umumiy chidamlilikni rivojlantirish	Kun:	Eshkak eshish: bir nechta oʻtish uchun 200m kesish 150 m; 500 m neg. 300 m; 1000 m taxminan 750 m = rejalashtirilgan natijaning 90–95%.	6	4	5		1	16	140'
		Kechqurun:	Eshkak eshish: (2'/2'+2'/1"+2'/30"+2'/15"+2') +(2'/15"+2'/30"+2'/1'+2'/2'+2')/10' + 2000 m		10	4	1		15	100'
Shanba	Maxsus masofaga maxsus chidamlilikni rivojlantirish	Ertalab:	Nonushta –model chigal yozdi mashqlari, musobaqalar	3	2	1			6	60'
		Kun:	Eshkak eshish : taktik tayyorgarlik, V shiddat zonada vaqt uchun aniq ekipajlarga rejalashtirilgan natijalar 90-95%	8		2	2	1	13	120'
		Kechqurun:	Aprobatsiya yangi variantlari ekipajlar va boshqa masofalarda simulyatordan foydalanib + AEP, taktik sxema oʻrgatish usuli.	5	5	4		1	15	80' 60'
Yakshanba	Dam olish	Ertalab:	Qayta tiklovchi vositalar							
		Kun:								
		Kechqurun:								
Jami:				67	51	31	8	4	159	1520'

5-jadval

Yuqori malakali baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning musobaqa davri uchun mashg'ulotlar dasturi

Hafta kuni	Mashgʻulot yuklamasi	Kun vaqti	Mashgʻulot mazmuni	Shiddat zonasi					Daq.	
				I	II	III	IV	V		km
Dushanba	Dam olish	Ertalab: Kun: Kechqurun:	Qayta tiklovchi vositalar							
Seshanba	Texnika va yuqori tezlik mashqlarini muvofiqlashtirish	Ertalab:	Yugurish 20'-30' , URM							40
		Kun:	Eshkak eshish: bir xilda suv va quruqlikdagi texnik harakatlarni terenajorda takomillashtirish, texnikalar yuqori tezlik muvofiqlashtirish	4	8	3			15	100
		Kechqurun:	Eshkak eshish: almashinadigan - takrorlanuvchi eshkak eshish bilan tormozlar yoki ogʻirliklar (6x30"/15") + (8x20"/10" X dam /5'	6	2	5	1	1	15	120
Chorshanba	Zaxira masofasi, quriklikda	Ertalab:	Yugurish 20'-30' , URM							40
		Kun:	Eshkak eshish: almashinadigan - takrorlanuvchi rejimi ((4'/30"+3'/1'+3'/2 +2'/3'+4') 2 seriya/8' (2'/3'+2'/2'+2'/1'+2'/30"+2') 2 taqlid qilish / 5' dam olish intervali.	7	6	5	1	1	20	130
		Kechqurun:	Eshkak eshish: teng ravishda suvni xis qilish va sherik bilan V buyruq ekipajlar. Trener - uchun 8 min, mutaxassis. kuch, qoʻllab-quvvatlash-rezonans mashq qilish, koʻp sakrash	4	8				12	140
Payshanba	Eng kamida masofaviy taʼlim talab qilinadi 1/3 qismlar	Ertalab:	Biokimyó							
		Kun:	Eshkak eshish: bir nechta oʻtish uchun 200 m neg. 300 m; uchun 500 m neg. 750 m; uchun 1000 m neg. 1250 m = 80 dan % rejalashtirish natijalari	6	4	4	1		15	140
		Kechqurun:	Qayta tiklovchi vositalar							
Juma	Maxsus saqlash asosiy chidamlilik va suv hissi	Ertalab:	Yugurish 20'-30' , URM							40
		Kun:	Eshkak eshish: texnika rejalashtirilgan raqobat darajasida saqlanguncha muqobil-takroriy rejim tezliklar 20-30 bilan + mashgʻulot modelida musobaqalashish	6	4	2	1	2	15	110 30
		Kechqurun:	Eshkak eshish	3	7				10	60
shanba	Maxsus chidamlilik, musobaqa	Ertalab:	Keyin nonushta - model chigal yozdi mashqlar, musobaqalar	3	2	1			6	40
		Kun:	Eshkak eshish: oʻtish uchun 200 m salbiy 150 m; uchun 500 m, 300 m; 1000 m va 750 m = 90 % dan rejalashtirish, masofani va masofa davomida tezlikni oshirish	4	2	3-5	1	1	11-13	100
		Kechqurun:	Eshkak eshish: teng ravishda + yugurish, sakrash, URM	3	7				10	60 40
yakshanba	Masofalarni bosib oʻtishda taktik sxemalar 90 %	Ertalab:	Keyin nonushta model chigal yozdi mashqlari, musobaqalar	3	2	1			6	40
		Kun:	Nazoratdan oʻtish asosiy masofalar tomonidan dastur asosida	6	4-6	6-11	1-1		17-24	120
		Kechqurun:	Organizmi qayta tiklash. Faol dam olish							
			Jami:	55	58	37	11	5	156	1350

Eshkak eshuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini tuzishda anaerob-alaktat va anaerob-glikolitik yo'nalishdagi yuklamalarning maqsadli ta'siri vaqtining aniqlangan qonuniyatlariga hamda eshkakchilarning bu shiddat rejimlaridagi maxsus ish qobiliyati dinamikasiga muvofiq, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi makrosikllarda bazaviy va musobaqa oldi mezosikllar 2-3 haftagacha qisqartirildi.

Dissertatsiyaning **“Eshkak eshuvchilar mashg'ulot yuklamalarining hajmi va intensivligini optimallashtirish jarayonini tashkil etish samaradorligini tajribada asoslash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida malakali eshkak eshuvchilarning jismoniy va maxsus tayorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi, malakali eshkak eshuvchilarning anaerob almashinuv chegarasi (ANACH) va yurakning maksimal puls chastotasi (MPCH) ko'rsatkichlari dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot yuqori malakali eshkak eshuvchilarning haqiqiy mashg'ulot jarayoni sharoitida o'tkazildi. Tadqiqotda ikkita guruh (nazorat guruhi - 9 nafar sport ustaligiga nomzod va 6 nafar sport ustasi, tajriba guruhi - 9 nafar sport ustaligiga nomzod va 6 nafar sport ustasi) jami 30 nafar sportchi ishtirok etdi.

